

**Sulaymon Yudakov ijodi va uning “G’alaba” oratoriyasi haqida****Amirova Mohigulixon Shuhrat qizi**O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi akademik xor dirijorligi fakultetining  
ikkinchi kurs magistri

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek kompozitori Sulaymon Yudakov ijodi va uning o‘zbek oratoriyasi na‘munalaridan bo‘lmish “G’alaba” oratoriyasi haqida yoritib beriladi. Bu oratoriya Yevropa oratoriyalaridan farqliroq Sharq epik tafakkuri, dramaturgiya, milliy intonatsion kollektivlik-tushunchasi o‘zbek vokal simfonik tafakkurining konstruktiv mexanizmi sifatleri bilan shuningdek o‘zbek xor madaniyati rivojiga hissa qo‘shgan asar sifatida ajralib turadi.

**Tayanch iboralar:** Oratoriya, ariyoza, epos, poema- kontata, uvertyura.

O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofotlari sovrindori, kompozitor Yudakov Sulaymon Aleksandrovich XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin va teran iz qoldirdi. Bu nodir iste’dod sohibi, atoqli kompozitor butun hayoti va ijodiy faoliyatini o‘zbek musiqasi san’atini rivojlantirishga bag‘ishladi. Yudakov Sulaymon (Solomon) Aleksandrovich Qo‘qon shahrida 1916 yilning 14 aprelida tavallud topdi. O‘zining bolalik chog‘larini eslab, shunday hikoya qilgan edi: «Onamga yordam berish uchun 7 yoshimdan boshlab Qo‘qonning markaziy ko‘chasida poyafzal tozalovchi bo‘lib ishlar edim. Oilaviy ahvolimni va kechki maktabga endigina borganimni bilib, Hamza Hakimzoda Niyoziy meni 1928 yili yetim bolalar uyiga joylashtirdi. Bolalar uyida damli cholg‘u asboblari orkestri tuzilgan bo‘lib, orkestr rahbari menga fleyta chalishni va notani o‘rgatdi. U musiqiy qobiliyatimni sezgan bo‘lsa kerak. menga Moskvada o‘qishga maslahat va yordam berdi. 1932yili Moskva davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqasi —Rabfakning fleyta sinfiga o‘qishga kirdim. 1934 yili «Rabfak»ni bekittirdi va konservatoriya qoshida Moskva davlat musiqasi texnikumi ochildi. Meni kompozitor M.F.Gnesinning tavsiyasi bilan texnikumni nazariy, tarixiy, kompozitorlik bo‘limini birinchi kursiga qabul qilishdi. Texnikumda damli cholg‘ular orkestriga ham qatnashib turdim<sup>1</sup>. Kompozitsiyadan avval M.O. Mesnerda, ikki yildan so‘ng M.F.Gnesinda saboq oldim. 1938 yili texnikumni muvaffaqiyatli bitirdim. O‘sha yili Moskva davlat konservatoriyasining professori, kompozitor R.M.Gliyer sinfiga

<sup>1</sup> Ibrohimov O. Sadirov J. Musiqasi darsligi (7 sinf).- Toshkent Fan. 2017 B 101



kompozitsiyadan ta'lim ola boshladim.

Kursni tamomlaganimda 1941 yili ikkinchi jahon urushi boshlandi va men Toshkentga qaytib keldim. Urushdan keyin, qariya onamga qaraydigan odam bo'lmaganligi sababli o'qishimni davom ettira olmadim. Lekin o'z ustimda doim ishladim, hamkasabalarim bilan ijodim haqida o'rtoqlashib turdim.

S.Yudakov shu muhitda yashadi, o'qidi, dunyoni tanidi, musiqa olamining mo'jizakor sirlarini o'rgandi, kompozitor bo'lib shakllandi. Moskva konservatoriyasida o'qib yurgan yillari turli cholg'u asboblarga, ansamblarga musiqa yaratdi. Uning fortepiano uchun yozgan etyud, prelyudiya, variatsiya, sonatina, fleyta va fortepiano uchun yozgan «Rondo», «Lirik kuy», etyud, skripka va fortepiano uchun yozgan «Skerdso», «Sonatina», torli kvartet kabi Sharq musiqa ohanglari bilan sug'orilgan asarlarini konservatoriya talabalari qiziqib ijro qilishar edi. 1940 yili talaba-kompozitor S.Yudakov istisno tariqasida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga qabul qilindi. S.Yudakovning mustaqil ijodiy faoliyati Ikkinchi jahon urushi yillarida boshlandi. U 1941-1945 yillarda: o'zbek o'g'loni, yurt qahramoni Qo'chqor Turdiyevga bag'ishlab «Oldinga bosing, o'rtoqlar» va «Do'stlar» (A.Lohutiy so'zlari); «Chavandozlar qo'shig'i» (Mirtemir so'zi), «Jonga jon, qonga qon» (T.Fattoh so'zi) kabi vatanparvar ommaviy qo'shiqlarni, «Habibi tu manam» (H.Yusufi so'zi) romansini (1942 y.), «Farzand» (Ismoilzoda pyesasi) musiqali dramasini, torli kvartet uchun 3 ta pyesa va syuita, simfonik orkestr uchun «Syuita» asarlarini yaratdi. Ijod bilan birga S.Yudakov 1941-1942 yillarda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1943-1944 yillarda Tojikiston Davlat filarmoniyasida badiiy rahbar lavozimida ishladi. Tojik shoirlarining so'zlariga bir qator qo'shiq va romanslar yaratdi. 1945 yili Tojikiston Davlat madhiyasini yozish uchun ko'rik-tanlov e'lon qilindi. Mazkur tanlov uchun boshqa kompozitorlar qatorida S.Yudakov ham A.Lohutiy so'ziga madhiya yozdi. S.Yudakovning musiqasi tanlab olinib tasdiqlandi, hozirga qadar so'zi o'zgartirilgan holda S.Yudakovning madhiyasi jaranglab kelmoqda. 1946 yili S.Yudakov Toshkentga qaytib keladi va ijodini davom ettiradi. T.To'la so'ziga xor, solist va simfonik orkestr uchun «G'alaba» (1945 й.) kantatasini yozdi. A.S.Pushkin so'ziga o'zbek, tojik va rus ohanglarini payvasta qilgan holda «Kuylama sohibjamol», «Gurjiston tepaliklarida», «Bulbul», «Tungi mayin shabada», «Inozilya, men bu yerdaman» (1945 y.), A.Lohutiy so'ziga «Afsonai dil» va «Tasfiri tu» kabi romanslarini, skripka va fortepiano uchun «Sharq poemasi» (1946 y.) yaratdi. Kompozitorning—Sharq poemasi va «Kuylama sohibjamol» romansi ijrochilarning turli avlodlari repertuarlaridan munosib va mustaqil o'rin olgan bo'lib, hozirga qadar ijrochi va tinglovchilarni maftun etib kelmoqda. Skripka, violonchel va fortepiano



uchun «Syuita» (1946); ikkita fortepiano uchun «Syuita» (1948 y.) simfonik orkestr uchun «Tantanavor uvertyura» (1949 y.); torli kvartet uchun «Syuita» (1949 y.), A.Navoiy soʻziga «Basandast» (1949 y.) romansi, M.Mirshakar soʻziga «Alla» va «Yangi gʻalabalar uchun» qoʻshiqlari, M.Турсын soʻziga xonanda, xor va simfonik orkestr uchun «O,qiz bola» qoʻshigʻi oʻlkamizning zamonaviy musiqa sanʼatiga yana bir istedadli, zabardast kompozitor mustaqil ravishda kirib kelganidan darak bergan edi. S.Yudakov asarlarida oʻzbek va tojik xalqlari musiqasining taʼsiri boʻlsa-da, ammo oʻz uslubiga xos musiqalar yaratishga katta eʼtibor bergani ham yaqqol seziladi. 1951-1953 yillarda S.Yudakov Oʻzbekiston Bastakorlar uyushmasi hayʼatining maxsus kotibi boʻlib ishladi. S.Yudakov kasb mahoratini badiiy jihatdan yetilib borishi muhim davri 1950-1980-yillarga toʻgʻri keladi. A.Muxtor soʻziga yozilgan «Jon Oʻzbekiston», «Mehnat shodligi», Gʻ.Gʻulom soʻziga «Qirgʻiziston paxtakorlariga», Sh.Rashidov soʻziga «Dugonalar», «Olamda gullar yashar», T.Toʻla soʻziga «Karnaval vals», A.Surkov soʻziga «Hindi-rusi bxay-bxay», «Tinchlik sevarlar marshi» kabi jozibali, joʻshqin qoʻshiqlar fikrimizning dalilidir. Ayniqsa bu oʻrinda kompozitorni 1950 yili Gʻ.Gʻulom soʻziga yozgan, 1951 yilda esa Davlat mukofotiga sazovor boʻlgan 6 qismli «Mirzachoʻl» nomli vokal-simfonik syuitasi, 1955 yilda T.Toʻla soʻzlariga yozilgan: «Mening Vatanim» 4 qismli kantata, «Visol» (1965 y.) vokal poemasi, 1972 yil H.Gʻulom soʻziga yozilgan «Muborakbod» 5 qismli kantata (bolalar xor jamoasi ham qatnashadi), 1972 yil Mirtemir soʻziga solist, xor va raqs jamoalari uchun yozilgan «Alyor» vokal xoreografik syuitasi, 1973 yil E.Vohidov soʻziga solist, xor va simfonik orkestr uchun «Oʻzbekiston» poema-kantatasi, 1975 yili T.Toʻla soʻziga «Gʻalaba» oratoriyasi yorqin misol boʻla oladi. Shu nomli 1945 yilda yozilgan musiqa asosida yaratilgan mazkur oratoriya birinchi gal A.Navoiy nomidagi opera va balet jamoasi tomonidan koʻtarinki ruhda muvaffaqiyatli ijro etildi. Shuni aytib oʻtish joizki, 1950-1970 yillarda Respublikada har yili ommaviy xor,qoʻshiq bayramlari oʻtkazilar edi. Bayramni oʻtkazishda xor jamoalarining birlashmasidan tashkil topgan 50 minglik xor, boshqa kompozitorlarning asarlari qatorida S.Yudakovning «Mirzachoʻl», 1955 yildan boshlab «Mening Vatanim» asarlari muntazam ijro etilar edi. 1972 yildan boshlab «Alyor» vokal- xoreografik syuita ham eng koʻp ijro etiladigan asarlar qatoridan munosib oʻrin oldi. S.Yudakovning «Maysaraning ishi» nomli birinchi oʻzbek komik operasi unga katta shuhrat keltirdi. 1958 yilda Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Davlat katta Akademik opera va balet teatrida sahna yuzini koʻrgan mazkur opera teatrning asosiy repertuarlaridan biri boʻlib, hozirga qadar ijro qilinmoqda. Hamzaning shu nomli komediyasi asosida S.Abdulla va M.Muhamedovlar librettosini tayyorlashgan. Bu opera 1959 yili Moskvada oʻtgan



O‘zbekiston adabiyot va san’atining 10 kunligida Bolshoy teatrda sahna yuzini ko‘rgan. Tez orada Moskva davlat —ROMEN lo‘lilar teatri rus tilida operani tomoshabinlarga havola etdi va uzoq yillar davomida teatr repertuarida saqlanib keldi. 1960-yillarda mazkur opera Boshqirdiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va Samarqand opera va balet teatrlarida ham sahna yuzini ko‘rdi va katta muvaffaqiyat qozondi. 1974 yili esa Polshani Lodz shahri opera va balet teatrida ham tomoshabinlar qizg‘in kutib oldilar. Operaning birinchi ijrochilari: Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Karim Zokirov, Sattor Yarashev, Jamol Nizomxo‘jayev, Husan Ismoilov, Mixail Davidovlarning ijrochilik ampuallarida yangilik bo‘ldi. Ular ijrosida komplekt grammofon plastinkalar million nusxada chop etildi. Shuni aytish joizki, butun dunyoda yaratilgan eng mashhur operalar to‘g‘risida —Tanlangan 100 ta opera nomli kitobda S.Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi ham tilga olingan. Mazkur opera birgina kompozitorga emas, butun O‘zbekistonning zamonaviy musiqiy madaniyatiga ham shuhrat keltirdi. S.Yudakov 1970 yillarda Sharqda mashhur bo‘lgan, latifa sarkardasi Nasriddin Afandiga bag‘ishlab «Nasriddin Afandining yoshligi» nomli balet yaratgan edi. Baletning premerasi 1997 yilda Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatri jamoasi ijrosida bo‘lib o‘tdi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi. Kompozitor S.Yudakov P.Хампаев va M.Melkumovlar bilan hamkorlikda «Oq yo‘l» musiqali komediyasini yaratdi. «Shohi so‘zana» (A.Qahhor pyesasi), «Ganga qizi» (R.Tagor asari), «Zuhraning maktubi», «Furqat» drama spektakllariga, «Qachon atirgullar ochiladi», «Temirchining bayrog‘i», «12-soatli hayot» kinofilmlariga musiqa bastaladi. Uning qalami ostidan «Xorazmcha bayram yurishi», «Tantanavor uvertyura», «Yoshlar poemasi», «Festival uvertyurasi», «Xoreografik syuita» kabi simfonik musiqalari simfonik orkestrlar repertuarlaridan munosib o‘rin olgan. Kompozitorning simfonik musiqiy asarlari orasida ona xotirasiga bag‘ishlangan, mungli «Poema-rapsodiya» alohida o‘rin tutadi. U bir talay kamer-cholg‘u ansambl va orkestrlarga ham asarlar yaratdi<sup>2</sup>. S.Yudakov ko‘p qirrali ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan O‘zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoniga ulkan hissa qo‘shdi va boy musiqiy meros qoldirdi. Uning buyuk xizmatlari ordenlar, medallar bilan, «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi» va «O‘zbekiston xalq artisti» faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. S.Yudakov Davlat va Respublika davlat mukofotlarining sovrindoridir.

### **S.Yudakovning “G‘alaba” balet – oratoriyasi haqida**

Suleyman Yudakovning balet – oratoriyasi birinchi bor 1976 – yil 23 – iyun sanasida

<sup>2</sup> Xusnidinova Yu.M. O‘zbek Xor adabiyoti.-Toshkent 2019. B 101



tomoshabinlarga taqdim etildi. Bu asar O‘zbek kompozitorlarining yangi asarlari konserti ko‘rinishida dirijyor G‘ani To‘laganov boshchiligida ijro etilgan. Yakkaxonlar L.Xodjayeva va R.Chepcherenkodir. Sahna ko‘rinishi uchun kompozitor qo‘shimcha epizodlar ijod qilgan. O‘sha oqshom zalni urushning dahshatli yillari va unitilmas g‘alaba kuni xotiralarda ilhomlanib, o‘zgacha tuyg‘uga to‘ldi. Bayram muhitida milliylik va shodlik, g‘olib qahramonlarning mardlik qo‘shiqlari bilan birga onalarning yig‘i nolasi va qayg‘uli yig‘i, halok bo‘lganlarning xotirasiga shonli qasamyod tasvirlangan. Zaldagi tomoshabinlar muallifni uzoq vaqt va ishtiyoq bilan olqishladilar. Olqishlar sadosi konsert oldi repetitsiya paytida boshlanib, zaldagi yig‘ilgan tomoshabinlarning uzoq va bo‘ronli qarsaklari edi. Shuningdek yakkaxon ijrochini ishtiyoq bilan ijro etgan bastakor uchun ijrochilarning iliq minnatdorchiligi edi. Bu asar tinglovchilar va ijrochilarni o‘ziga jalb qila olgan ta‘niqli asar bo‘lib, juda katta jamoani: o‘nta ansamblidan iborat opera studiyasi, radio qo‘mitasi, filarmoniya va xor jamoasini o‘z ichiga oldi va bu katta jamoa vakillari birinchi navbatda muhlislar va ijrochilar tomonidan Suleyman Yudakovga o‘z minnatdorchiliklarini bildirishdi. S.Yudakov “G‘alaba” oratoriya asarida harbiy vatanaparvarlik mavzusiga murojaat qilgan. Ushbu mavzu asosida u oratoriya – baleti konsepsiyasini ishlab chiqadi. Asar muqaddima va olti qismdan iborat bo‘lib, ularning mazmuni va ketma – ketligi drammatik rejaning birligini tasdiqlaydi: “Halok bo‘lganlar xotirasi” muqaddimasi (prologi), I qism “Urush”, II qism “Vatan va xalq”, III qism “Ona ariozosi” IV qism “G‘olibona hujum”, V qism “Qahramonlarga sharaflar”, VI qism “Apofeoz”. Oratoriyaning o‘ylab topilgan mazmun jihati va butun konsepsiyaning ustuni mafkuraviy shaklda bo‘lib, ya‘ni histuyg‘ular shaklida “azob uqubatlardan, kurash orqali g‘alabaga erishishdir”. Badiiy ko‘rinish monumentalligi va asar ijrochilarining tuzilish pafosi suxandon, yakkaxonlar: metso –soprano, bariton, aralash xori va simfonik orkestr, sahnada balet artistlari tashkil qiladi. Balet oratoriyasining musiqiy tarkibini ohangdor, jonli va keng ommaga ochiq bo‘lib o‘zbek xalq qo‘shiqlarining intanatsiyasi, ritmik va tarkibiy hususiyatlarini aks ettiradi. “Halok bo‘lganlar muqaddimasi” (prolog) bastakor tomonidan lirik – epik reja tarzida tasvirlangan. Suxandonning qayg‘uli va ba‘zan achinarli intonatsiyalari, yurakning urush harakatlarini psixologik nozik tuyg‘ularni orkestrining zarbli va torli cholg‘ulari bilan tasvirlangan. Haqiqiy topilmani asar ohirida qiziqarli badiiy yo‘llardagi yondashuvdan foydalanish deb hisoblash mumkin – minoradagi tosh soatlarining ovozigacha taqlid, huddi tinglovchini urushning daxshatli yillari xotiralariga olib borgandek ortga hisoblash bilan birlashtirilgan. Keyingi qism “Urush”. Bastakor dushman kuchlarining bosqinini istehzoli yurish shaklida tasvirlaydi, bunda – fleytalar, kontrafagot,



## Learning and Sustainable Innovation

kontrabasslar, zarbli cholgʻulardan foydalanilgan. Bu epizodning xoreografik timsolini oratoriya ijrosining sahna shaklida aks ettiradi. Bu qismda dushman obrazi ustunlik qiladi. Faqat xor jamoasi asar ohirida odamlarning bosqinchilarga nafratini anglatuvchi qasos mavzusi yangraydi. Butun xalq dushmanga qarshi kurashish uchun qoʻzgʻaladi. “Atacca” oʻtish qismi boʻlib, shu orqali asarning ikkinchi qismi - “Vatan va xalq”ga oʻtishini mantiqan taʼminlaydi. Tabiiyki, xalq qiyofasi qasos soʻzlari bilan bosqinchilarga qarshi kurashga chaqiruvchi xor orqali ifodalanadi. Xorning musiqiy uslubi, oʻzbek talaffuzlari, vatanparvarlik, jangavorlik qoʻshigʻi matini turli koʻrinishdan yaxlit butunlikka bogʻlaydi. Xor partiyalari har xil turdagi fakturali yechimiga, bandli (куплет) – variatsiyali shaklini taqdim etadi. Ona Vatan oʻz oʻgʻillarini urushdan qaytishini kutmoqda – “Ona ariozosi”ning mazmuni shundan iborat. Opera ariozosi ruhida ohangdor yorqin, yakkaxon onaning shuningdek, oq sochli onalar, sevimli kelinlarning qaygʻusini anglatuvchi aʼkapella xori bilan navbatma navbat almashib kuylanadi. Tinglovchiga onaning yigʻlayotgan nolasi chuqur taʼsir qiladi va butunlay oʻziga jalb qiladi. Uning tashvishli kutishi baʼzan qalbining faryodiga aylanadi – “Qachon qaytib kelursan?”. Psixologik taasurotning kuchayishi natijasida – ariozo oxirida “Yigʻlash” texnikasidan foydalanish kuchayadi; tushayotgan ohangdorlik harakati soʻnib borayotgan ohanddorlik bilan joʻnavoz boʻladi.

Barcha onalarning yorqin, muqaddas umidini taʼkidlashi uchun, ariozo asosiy major akkordi bilan tugaydi. Butun kompozitsiya dramaturgiyasida “Ona Ariozosi”, oʻziga xos turli erkin adagio sifati maqsadida fikrlanadi, uni sahna koʻrinishida nafaqat vokal, balki xoreografiya orqali ham tasvirlanadi. IV qism “Gʻolibona hujum”. Bu qism, huddi “Urush” kabi, xoreografik reja asosida oʻylab topilgan. Kompozitor uni ilgari yangragan ikkita mavzu yaʼni dushman bosqini va xalqning nafrat mavzulari, oʻziga xos orkestr “dueliga” asos solgan. Musiqa shuni koʻrsatadiki, dushman orqaga xalqning hujumi ostida olib tashlanadi. Butun qism gʻalaba shukuhi bilan ifodalangan. Keyingi oxirgi ikkita qismi esa bir koʻrinishli his tuygʻu asosida: agar V qism “Qahramonlarga sharaflar” janchilarning jasorati ifodalangan boʻlsa, unda VI qism “Apofeoz” umumxalq gʻalabasini ifodalaydi. Kompozitor beshinchi qismni (xor bilan yakkaxon) gʻolib qahramonlarning quvonchi sifatida izohlaydi. Ashug urf – odatlarini eslatuvchi printsipti ustunlik qiladi. Umumiy gʻalabada oʻzbek xalqining hissasi borligi, ushbu qismning intonatsion tuzilmasini Xorazm xalq qoʻshigʻining yorqin naʼmunasi taʼkidlaydi. Musiqaning milliy xususiyatini orkestrning bir qatlami boʻlmish oʻzbek xalq cholgʻusi nogʻora orqali tasvirlanadi. “Apofeoz” da gʻalaba tovushlarini orkestrda taqlid qilingan oʻziga xos milliy cholgʻular – karnaylar va surnaylar xalqning



g'alabasini ramziy tasvirlab , quvnoq qo'ng'iroqlar chalinishi bilan kesishib uyg'unlashadi. Suleyman Yudakov kantata va oratoriya janrining taniqli ustasi. Aynan shu janrda bastakor o'zini san'atning estetik ta'siriga ortiqcha baholash qiyin bo'lgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan rassom sifatida namoyon etdi, deb aytish mumkin. Ijobiy omil sifatida yo'naltirilgan, olovli har doim zamondoshimizning kuychan yorqin musiqasi hayotning ijobiy tomonlarini tarannum etadi, ishonchini uyg'otadi, ruhiyatini ko'taradi, jasoratni chaqiradi, insonning eng yaxshi his tuyg'ularini uyg'otadi. U vaqt zarbasiga mos keladi, u bastakorning ijodiy izlanishlarini aks ettiradi va shu ma'noda Sulaymon Yudakov shoirning so'zlari bilan bu haqida haqli ravishda aytishi mumkin edi. Sulaymon Yudakovning musiqasini tinglab, hayratlanarli darajada yorqin his tuyg'ularning o'ziga hosligini aniq his etasiz, tuyg'ularning ilhomlanishi, kayfiyatning ko'tarilishini sezasiz. Yorqin optimistik(ijobiy omil) munosabat, sevgi munosabatida hayajonlangan tuyg'u va hazil – mutoyiba munosabatlarini ifodalash o'zbek bastakorining iste'dodini aks ettiruvchi fazilatdir. Sulaymon Yudakov hayotining hissiy jihatdan ochiq qabul qilinishi, musiqiy nutqning tabiiy shakllanishi, talaffuzining kamdan kam muloqoti bilan ajralib turadi. Uning asarlarining aksariyati mashhur emasligi bejiz emas: ular keng doiradagi tinglovchilar tomonidan qabul qilingan va shu bilan birga hech qanday soddalashtirishsiz , iptidoiylik shakllar yo'q. (Primitizm so'zi) Sulaymon Yudakov uchun milliy zamindan tashqarida boshqa musiqa yo'qdir. Bastakorning eng yaxshi asarlarida jonajon O'zbekiston obrazini madh etiladi. Ularda o'zbek qo'shiqlari, raqsi va she'riyatning elementi seziladi. Milliy xalq ohanglari bilan ifodalangan musiqa juda zamonaviy bo'lib vaqt o'lchamini aks ettiradi. Yangi hayot nurini kuylaydi.

#### Xulosa

XX asrda konsert estradasida va teatrda birdek ijro etish mumkin bo'lgan "Opera - Oratoriya" janri shakllandi: A.Oneggerning "Shoh David" («Царь Давид»), I.Stravinskiyning "Shoh Edip" («Царь Эдип») oratoriyalari bu janrga na'munadir. Zamonaviy musiqada esa oratoriya janri katta tarixiy va ijtimoiy voqealar mavzularini yoritishda qo'llanilgan: M.Kovalning "Yemelyan Pugachov" («Емельян Пугачёв»), D.Shostakovichning "O'rmon haqidagi qo'shiq" («Песня о лесах»), S.Prokofyevning "Tinchlikni qo'riqlash" («На страже мира»), G.Sviridovning "Potetik oratoriyasi" («Потетическая оратория»), D.Kabalevskiyning "Marsiyasi" («Реквием») nomli oratoriyalari misol bo'la oladi. Bu janr o'zbek kompozitorlari ijodida ham o'z o'rniga egadir. Ilk o'zbek oratoriyasi "Jaloliddin Xorazmiy" deb nomlangan bo'lib mualliflari B.Arapov va A.Kozlovskiydir. 60-70 yillarda S.Yudakovning ijodi keng ommalashgan. U turli janrdagi musiqa asarlari muallifi hisoblanadi. Uning qalamiga



bir nechta kantata-oratoriya asarlari mansub. “G‘alaba” S.Yudakovning birinchi oratoriyasi Turob To‘la so‘zlariga yozilgan bo‘lib 1945 yilda xalqlarining g‘alabasi aks ettirilgan. Bu davrda O‘zbekistonda xor madaniyati endi rivojlanayotgan edi. Kompozitorning ijodiy balog‘atga to‘la yetishmaganligi kantataning xor qismiga ta’sir qiladi: oktava-unison ohanglar ustunligi, xor partiyalarida o‘rinli foydalanganlik natijasida xorlar ohangi qichqiriqli yoki aksincha jarangsiz chiqqan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa darsligi (7-sinf). — Toshkent, 2017.
- 2.Shamahmudova B.V. Xor lug‘ati. — Toshkent, 2009.
- 3.Xusnitdinova Yu. O‘zbek xor adabiyoti. — Toshkent, 2018.
- 4.Muhiddinova G. Kantata va oratoriya janrlarining O‘zbekiston musiqa madaniyatida tutgan o‘rni // Zenodo. — DOI: 10.5281/zenodo.7779134.
5. Yudakov S. Tanlangan asarlar / vokal-simfonik meros. — Toshkent, (nusxaga ko‘ra).
6. Xusnidinova Yu.M. O‘zbek Xor san’ati Toshkent 2019